



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/6

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



<p>Muassis: Buxoro davlat universiteti Fan va ta'lim MChJ</p> <p>Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshullayevich</p> <p>Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori</p> <p>Tahririyat kengashi raisi: Maxmudov Mels Hasanovich</p> <p>Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna</p> <p>Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich</p> <p>Tahririyat manzili: Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy</p> <p>Telefon: +998(90)744-00-22</p> <p>E-mail: eirjurnal2020@gmail.com</p> <p>Jurnalning elektron sayti: www.interscience.uz</p> <p>Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan</p> <p>Bosishga ruxsat etildi: 28.02.2023 y. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5. Buyurtma raqami 1.23 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar</p> <p>Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan</p> <p>Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi</p> <p>«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi</p> <p>Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir</p>	07.00.00 – TARIX FANLARI	
	Aymatova Z. G'. XIX asrda O'Rta Osiyo musulmonlarining haj ziyorati	7
	Baymatov A. K. O'zbekistonda uy-joy siyosatining milliy modelini yaratish omillari	10
	Boltayev B. B. Yong'in xavfsizligi tarixi (targ'ibot markazi muzeyi misolida)	13
	Khamdamova S. S. Philosophical-educational notions at the literature of central asia in 19-20 centuries (on the example of Mahmudhoja Behbudiy)	18
	Koshanov B. A. Qoraqalpog'iston davlat arbobi qallibek kamalov	22
	Norqo'chqarov X. E. Afg'oniston o'zbeklarida o'zbek tilining holati va hududiy-dealektik tafovutlar: tarixiy yondoshuv (XX asr – XXI asr boshlari)	26
	Ochilov I. Xorazm vohasi aholising turmush tarzidagi qadimiy diniy e'tiqodlar izlari	31
	Orziyev M. Z. XX asrning 70-80 yillarida O'zbekistonning Angola va Mozambik bilan munosabatlari xususida...	35
	Qudratov Sh.Yo. Buxoro amirligi tasarrufidagi bozorlar va savdo markazlari faoliyatiga doir ayrim mulohazalar	39
	Usmonov B. B. O'zbekiston va tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy sohadagi hamkorlik aloqalarining rivojlanishi	42
	Назаров О. М. Усиление хлопковой монополии в сурхандарьинской области и его социально-экономические последствия	45
	10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
	Amonov U. S. Ustoz duosin olgan Ustoz	49
Арипова Х. А. Особенности функционирования ключевых мотивов в романах дины рубиной «почерк леонардо» и «синдром петрушки»	51	
Болтаева М. Ш. Инновационные методы преподавания русского языка и литературы	54	
Israilova D. A. The role of Fairy tales in teaching English language and values to preschool children	58	
Rejapov I. O. Son komponentli frazeologik birliklarning milliy- madaniy o'ziga xosliklari	62	
Soberova M. O'Tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida o'qituvchi obraziga chizgilar va davr talqini	67	

YONG‘IN XAVFSIZLIGI TARIXI (TARG‘IBOT MARKAZI MUZEYI MISOLIDA)*Boltayev Bobir Baxtiyorovich,**Buxoro davlat universiteti, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası katta o‘qituvchisi*

Annotasiya: Ushbu maqolada yong‘in xavfsizligi xizmati sohasining shakllanishi va uning rivojlanish bosqichlari xronologik ketma-ketlik asosida yoritib berishga harakat qilingan. Bundan tashqari ushbu soha vakillarining mashaqqatli va sharaflı kasbi haqidagi ma‘lumotlar va manbalar O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi Buxoro viloyati Yong‘in xavfsizligi boshqarmasi targ‘ibot markazi muzeyida mavjudligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Dekret, brandmeysterlar, komanda, nizom, yong‘indan saqlash, zilzila, muzey, ekspozitsiya, general-mayor, aviasozlar.

ИСТОРИЯ ПОЖАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ МУЗЕЯ АГИТЦЕНТРА)*Болтаев Бобир Бахтиёрович,**Бухарский государственный университет,**Старший преподаватель кафедры Археологии и истории Бухары*

Аннотация: В данной статье предпринята попытка объяснить формирование сферы службы пожарной безопасности и этапы ее развития исходя из хронологической последовательности. Кроме того, информация и ресурсы о непростой и почетной профессии представителей этой сферы доступны в музее пропагандистского центра управления пожарной безопасности МЧС Республики Узбекистан Бухарской области.

Ключевые слова: Указ, брендмастера, командование, устав, противопожарная защита, землетрясение, музей, экспозиция, генерал-майор, авиационные инженеры.

THE HISTORY OF FIRE SAFETY (ON THE EXAMPLE OF THE MUSEUM OF THE PROPAGANDA CENTER)*Boltaev Bobir Bakhtiyorovich,**Bukhara State University, Senior Lecturer of the Department of Archeology and History of Bukhara*

Annotation: This article attempts to explain the formation of the fire safety service and the stages of its development based on the chronological sequence. In addition, information and resources about the difficult and honorable profession of representatives of this sphere are available in the museum of the fire safety propaganda center of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan in the Bukhara region

Keywords: Decree, brand master, command, charter, fire protection, earthquake, museum, exposition, major general, aviation engineers.

Kirish: Islom dini o‘rta Osiyoga kirib kelgunga qadar odamlar Zardushtiylik diniga, ya‘ni uning asosi bo‘lmish olovga sig‘inganliklari tarixdan ma‘lum. Qadimda O‘rta osiyoda yashagan xalqlar uchun olov bemisl kuch-qudratga ega bo‘lgan va barcha marosimlar uning atrofida o‘tkazilib kelingan. O‘rta Osiyoda Islom dini joriy etila boshlangan davrlarda boshlab esa bu jarayon keskin o‘zgaradi. Olovda hech qanday ilohiy qudrat yo‘qligini bilgan kishilik jamiyati a‘zolari unga sig‘inishdan to‘xtab, faqatgina ro‘zg‘or ishlarida foydalana boshlaydilar. Afsuski, vaqti kelib odamzod olovdan yovuz maqsadlarga ham foydalana boshlaydi. Olov yovuz niyatli kishilarning himoya vositasigina emas, hujum qilish, o‘ldirish vositasiga ham aylana ulguradi. XII asr oxirlari XIII asr boshlarida dunyoni zabt etish maqsadlarida ulkan qo‘shin tuzib barcha mamlakatlari, xalqlar qatori O‘rta Osiyoga bostirib kirgan Chingizxon shaharlaru qishloqlar, qal‘alarga hujum paytida olovli paykonlardan keng foydalangan, bosib olingan joylarga o‘t qo‘ydirib, aholisini qilichdan o‘tkazishga buyruq bergan. Uning ko‘p sonli tish-tirnog‘igacha qurollangan qo‘shini 1220 yilning bahorida Buxoro shahri ustiga yurish qilib, uni 12 kecha-yu kunduz qamal qilgan, yondirib, kulini ko‘kka sovurgan shahar mudofachilarini esa ayovsiz qilichdan o‘tkazgan. Ko‘hna Samarqand shahrini egallash uchun olib borilgan janglarda ham olov Chingizxon va uning yovuz qo‘shinlari uchun katta kuch vositasi bo‘lib xizmat kilgan. Bunday bosqinchilik yurishlari haqida o‘z davrida muarrixlar tarixiy ma‘lumotlar qoldirganlar[1]. Haqiqatdan ham insoniyat asta-

sekinlik bilan o'zining g'arazli maqsadlarida olovdan tez-tez foydalana boshlagan. Qaysi bir harbiy to'qnashuvni biz misol qilmaylik, barchasi insoniyat qo'li bilan yaratilgan shaharu-qishloqlarning talofot ko'rishiga, vayrona bo'lishiga olib kelganligini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Shunday hollarda yong'inni jilovlay oladigan va uni bartaraf etadigan soha vakillariga ehtiyojning paydo bo'lishi natijasida yong'in xavfsizligini oldini olish va uni bartaraf etish xizmatining vujudga kelish tarixini yoritish bizning nazarimizda hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuni keng qamrovli yoritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari, Matlyubov B.A. O'zbekistonda jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash tarixi (Ichki ishlar organlari misolida): Monografiya / - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 648 b., Buxoro viloyati favqulotda vaziyatlar boshqarmasi yong'in xavfsizligi bo'limi muzeyida mavjud bo'lgan eksponatlar kitobi. Kazakov T. Kasbim faxrim. – Buxoro: "Buxoro" nashriyoti, 2018. – 222 b, kabi manbalar o'rganib tahlil qilindi va xulosalandi.

Tarixdan bizga ma'lumki, Turkistonda, uning ma'muriy markazi Toshkentda ham o't o'chirish jamoa (komanda)larining vujudga kelishi o'lkada sodir bo'lib turgan yong'inlar tufayli bo'lib, bu masalaga Chorizmning Turkistondagi ma'murlari jiddiy qarashga majbur bo'lganlar. Shunga ko'ra, Turkiston general-gubernatorligi ruxsati bilan 1897 yilda Toshkentda ruslardan iborat ilk ko'ngilli "Ozod o't o'chirish jamiyati" tashkil etilgan. Uning Nizomi 81 banddan iborat bo'lib, Toshkent shahar Dumasida bir necha marta ko'rib chiqilib, 1897 yil 15 mayda qabul qilingan. Maxsus o't o'chiruvchilar jamoalari tashkil etilishining o'ziga xos sabablaridan yana biri o'lkada paxta sanoatini kuchaytirish, zavodlar, ularni mablag' bilan ta'minlovchi banklarni tashkil etishga e'tibor kuchayganligi, bundan Chor hukumati manfaatdorligining oshganligidir. Chorizm davrida Turkistonda, jumladan Toshkent shahrida faoliyat olib borgan o't o'chiruvchilar "brandmeysterlar" deb atalib, ular ixtiyoriga suv to'ldirilgan bochkali ot-aravalar berib qo'yilgan. Modomiki, dunyo bo'yicha yong'in xavfsizligini ta'minlash hayotiy bosh masalalardan biriga aylanib borayotgan bir davrda, ya'ni XIX asrning oxirlari XX asr boshlarida Turkistondagina emas, chor rossiyasining o'zida ham yong'inga qarshi kurash ishiga sovuqqonlik ko'rsatilib kelingan. Albatta, yong'inga qarshi kurash, sodir bo'lgan yong'ini bartaraf etishning ilk texnika vositalari, ularga mas'ul kishilardan iborat jamoalar tarixi haqida uzoq fikr yuritish mumkin. Asosiy maqsadimiz esa respublikamiz yong'in xavfsizligi xizmatining olis o'tmishi va bugunini yoritish bo'lganligi bois ham tarixning ayrim sahifalariga yana bir karra to'xtalib o'tish e'tiborga molikdir deb o'ylaymiz. Ko'pgina soha xodimlari yong'in xavfsizligi xizmatining tashkil etilishi tarixi asosan 1918 yilda Rossiya Xalq komissarlari Soveti tomonidan qabul qilingan Yong'inga qarshi kurashda davlat choralari tashkil etish to'g'risida"gi Dekret bilan bog'liq, deyishadi. O'sha hujjat e'lon qlingach, yong'indan saqlash bo'limi va mazkur bo'lim kengashi tashkil etilib, uning zimmasiga yong'indan saqlash bo'limi va mazkur bo'lim kengashi tashkil etilib, uning zimmasiga yong'indan saqlash ishlarini olib borish va umumiy rahbarlik qilish vazifasi yuklatilgan edi. Respublika Davlat arxivida saqlanayotgan va yong'in xavfsizligi xizmati tarixiga oid ba'zi manbalarda 1917 yilda Toshkentda uncha katta bo'lmagan ikkitagina o't o'chirish jamoa (komanda)si bo'lganligi, ulardan biri shaharning eski shahar qismida, ikkinchi jamoa esa shaharning yangi qismida, ya'ni Gogol ko'chasida joylashganligi, uning a'zolari soni 40 nafardan iboratligi qayd qilib o'tilgan [2]. 1921 yilda esa Turkiston Respublikasi xalq komissarlari Sovetining "O't o'chiruvchilar komandalari shaxsiy tarkibini qizil Armiyaorti oziq-ovqatlar bilan ta'minlashga o'tkazish to'g'risida" qarori qabul qilingan, xuddi shu yili Toshkentda o't o'chiruvchi texniklarni tayyorlash kurslari tashkil etila boshlangan. Respublikaning ko'pgina shaharlari va qishloqlarida ozod o't o'chiruvchilar jamoalari tashkil etilib, o'lkada yong'indan saqlashni mustahkamlash maqsadlarida birmuncha imtiyozlar berilgan. Xuddi o'sha yili Turkiston Respublikasi Ichki ishlar Xalq komissarligida yong'indan saqlash bo'limi kommunal bo'limiga aylantirilgan edi. Bu bo'lim zimmasiga aholi uy-joylar ahvolini yaxshilash bilan birga yong'inni oldini olish, agarda u sodir bo'lsa, uni bartaraf etish vazifasi ham yuklatilgan edi. 1921 yil 19 martda bo'lib o'tgan yig'ilishda yong'in xavfsizligi xizmati faoliyati qoniqarsiz deb topilib, jiddiy tanqid ostiga olindi. Buning asosiy sababi qilib esa texnika vositalarining yetishmasligi hamda xodimlar malakasining juda pastligi ko'rsatib o'tildi. Yuqoridagi tanqidlardan xulosa qilish maqsadida:

1922 yil Toshkent shahar Sovetining qaroriga ko'ra Toshkentning Xadra maydoniga yaqin, sobiq Toshtram binosida 12 kishidan iborat bo'lgan o't o'chiruvchilar deposi tashkil etildi. Respublika sanoatiga ayni paytda zamonaviy o't o'chirish texnikalari, maxsus avtomashinalar kerak bo'lib qolgan edi. XX asrning 20-yillar oxirlari, 30-yillarning boshlarida Farg'ona, Marg'ilon va Buxoro shaharlarida dastlabki ipak mato ishlab chiqaruvchi fabrikalar ishlay

boshlagani, Andijonda neft qazib chiqarila boshlanganligi sanoatning bunday tarmoqlarini ot-aravali suv bochkasi bilan yong'inlardan muhofaza etish jismonan mumkin bo'lmay qolganligini ko'rsatdi. 1931 yilda ot-aravali o't o'chirish vositalari o'rnini texnika egallay boshladi. O'sha yili respublikaga Avstriya, Germaniya firmalari tomonidan ishlab chiqilgan dastakli o't o'chirish avtomashinalari Rossiya orqali olib kelina boshlandi. 1932 yil o'rtalarida o't o'chiruvchilar komandasiga ilk marta GAZ-AA rusumli bitta o't o'chirish avtomashinasi olib kelindi, bunday mashina yil oxiriga kelib ikkitaga yetdi. 1933 yilning 1 yanvarida Toshkent shahar Yong'indan saqlash bo'limi boshlig'i D.I.Kuzovkin tomonidan qismlarda kecha-yu kunduzi navbatchiliklar to'g'risida va harbiy bo'linmalardagi kabi o't o'chiruvchilarga harbiy nishon berilishi haqida buyruq chiqariladi [3]. 1934 yilning oktyabrda 3 ta yong'in stansiyasi qurilishi to'g'risida qaror qabul qilinadi. 1936 yilga kelib O'zbekistonda 1924 yilga nisbatan ikki marta ko'p 20 ta o't o'chirish jamoa (komanda)si bor edi. Komanda o'sha yillarda Toshkent shahar ijroiya qo'mitasi qaramog'ida bo'lib, 1936 yilda Respublika Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD) tasarrufiga o'tkazildi. 1938 yil 6 mayda SSSR Xalq Komissarlari Soveti qabul qilgan maxsus qarorda boshqa respublikalar qatori O'zbekistonda yong'in nazorati va yong'indan saqlashni kuchaytirish, yong'indan saqlashni qayta tashkil etish, shaharlardagi korxonalarda ishchi-xizmatchilardan iborat ko'ngilli o't o'chirish drujinalarini vujudga keltirish belgilab berilgan edi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Toshkentda qayta tashkil etilgan va harbiylashtirilgan o't o'chirish bo'linmalari soni 12 taga yetkazildi, ularning 6 tasi Aviasozlar, Toshkent to'qimachilik kombinati, Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Kabel ishlab chiqarish korxonalarida edi. Ular turli yo'nalishdagi 30 ta yong'in o'chirish avtomobili bilan taminlangan edi. 1942 yilning 13 avgustidagi SSSR XKS qaroriga ko'ra davlat yong'in nazoratining vakolatlari yanada kengaytirilgan [4].

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi yong'in xavfsizligi uchun javobgarlik 1944 yilgacha V.B.Nikolayev, 1944-47 yillarda esa G.A.Antonov rahbarligidagi Yong'indan saqlash bo'limiga yuklatilgan va bu bo'lim harbiy qonun-qoidalarga muvofiq ish yuritib kelgan. Xizmat tizimidagi yangilanishlar dastlab D.M.Matveyev 1948-52 yillarda, so'ng S.T.Shabanov 1952-56 yillarda rahbarlik qilgan davrlarda ko'zga tashlana boshladi. Ular boshlagan texnika ta'minoti xizmat binolarini qurish ishlarini 1956-57 yillarda yong'indan saqlash bo'limiga rahbarlik qilgan N.R.Hamidov, 1957-68 yillarda V.Ye.Paradalar davom ettirishdi. 1957 yilga kelib qismga ZIS-150 shassisidagi bitta PMZ-17 avtouluvi berilgan. Yangi yong'in o'chirish avtomashinasi keltirilishi munosabati bilan komandada shaxsiy tarkib soni 74 kishi qilib belgilangan. 1957 yil ushbu qismga ichki xizmat kapitani A.Bekbulatov, 1958 yil esa ichki xizmat mayori H. Rahmonovlar rahbarlik qilishgan. Ushbu kasb egalarining mashaqqatli, sharaffi mehnatini yuqori baholab hukumat 1957 yilda "Yong'indagi jasorati uchun" medalini ta'sis etgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozim-ki, o'tgan asrning 60-yillarida mamlakat xalq xo'jaligini yong'inlardan muhofaza qilish va yong'in xavfsizligini ta'minlashga oid bir qancha me'yoriy hujjatlar, Qarorlar va ko'rsatmalar qabul qilinganligi davlat tomonidan yong'in nazorati va yong'indan saqlash tizimiga naqadar katta vazifalar, mas'uliyat yuklatila borilganligidan dalolatdir. Masalan, 1964 yilning 3 yanvarida O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "Yong'in xavfsizligi qoida talablarini buzganligi uchun jarimaga tortish to'g'risida". 1967 yil 12 mayda "Mehnatkashlar deputatlari Soveti ijroiya komiteti qoshida shtatsiz yong'in inspektorlari guruhleri haqidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi, 1968 yil 6 mayda "Respublika ko'ngilli yong'in o'chiruvchilar jamiyatlariga rahbarlik qilishni yaxshilash bo'yicha choralar to'g'risida"gi qarorlari o'sha davr uchun muhim yangiliklar sirasiga kiradi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida tarixiylik va ilmiylik hamda xronologik va qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

1960-80-yillardagi tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etishda Respublika yong'in xavfsizligi xizmati vakillarining o'zni nihoyatda ahamiyatli bo'lganligiga tarixning o'zi guvohdir. Masalan, 1966 yilda Toshkentda va 1980 yilda Toshkent viloyati Nazarbek qo'rg'onida sodir bo'lgan zilzila oqibatlarini bartaraf etishda, tabiiy ofatdan zarar ko'rganlar va jabrlangan kishilarga yordam ko'rsatishda, ularni qutqarish, olov iskanjasidan olib chiqib birinchi tibbiy yordam ko'rsatish paytida yong'in o'chiruvchilar juda katta matonat va jasorat ko'rsatishganligi alohida tahsinga sazovordir. Zilzila natijasida vayronaga aylangan uylar ostidan odamlarni qutqarish, ular hayoti uchun kurashish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. O'sha davrda zilzila oqibatida bir kecha kunduzda sodir bo'lgan yong'inlar soni 250 tagacha yetganligini bugungi avlod yaxshi bilmaydi. O'sha yong'inlarni tezkorlik bilan o'chirish va odamlar, ularning mulklarini qutqarib qolish uchun naqadar ko'p kuch va iroda kerak bo'lganligini faqat mazkur soha kishilari faoliyatini yaxshi bilgan yoki undan xabardor bo'lgan kishilargina tushuna oladilar. Toshkentdagi kuchli

zilizla oqibatlarida yuz bergan yong'inlar va ularda jabr ko'rgan kishilarni qutqarib qolish, zilzila oqibatlarini bartaraf etishdagi jasoratlari uchun respublikamizning 120 nafar yong'in o'chiruvchisi "Yong'indagi jasorati uchun" medali bilan taqdirlangan. 1973 yilning 1 yanvariga kelib ana shu medalga O'zbekistonda taqdirlangan yong'in o'chiruvchilar soni 178 nafarga yetganligi so'zimizning yorqin isbotidir. Yuqorida misol qilib keltirilgan taqdirlarda mard, jasur, vatanparvar yong'in xavfsizligi xodimlarini tarbiyalashda O'zbekistonda yong'in xavfsizligi xizmatini takomillashtirishda, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarining samarali yo'lga qo'yilishida munosib hissa qo'shgan rahbar xodimlarning roli ham juda katta deb hisoblaymiz. Shulardan biri Bahodir Ergashevich Qosimovdir [6]. U sobiq Ittifoq IIV Yong'indan saqlash Oliy texnik maktabining Toshkent fakultetiga rahbarlik qilgan 1984-1991 yillarda mazkur fakultet hamda Toshkent yong'in-texnik bilim yurti bazasida Respublika IIV Yong'indan so'ng saqlash Oliy texnik maktabiga asos solgan rahbarlardan hisoblanadi.

U 1988 yilda yong'in xavfsizligi xizmatining qator muammolari mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlab, O'zbekistonda birinchilardan bo'lib, soha yo'nalishidagi yirik masalalarni ilmiy jihatdan tahlil etib bergan va Respublikada ilmiy va amaliy salohiyatga ega mutaxassislar tayyorlash bilan bog'liq qator muammolarni ko'tarib chiqqan olimdir. Yuridik fanlari doktori, professor B.Qosimovga 1994 yilda general-mayor unvoni bilan taqdirlangan. Bahodir Ergashevich Qosimov 1984 yildan 1998 yilning iyul oyigacha turli rahbarlik vazifalarida xizmat qilib, respublikada yetuk mutaxassislar avlodini tarbiyalash va voyaga yetkazishga muhim hissa qo'shdi. Undagi rahbarlik iste'dodi, mamlakatimiz xalq xo'jaligini yong'inlardan muhofaza etishdagi chuqur bilim va salohiyat ayniqsa, 1998 yildan 2002 yilga qadar Respublika Favqulodda vaziyatlar vaziri bo'lib ishlagan davrlarda yanada ko'proq namoyon bo'ldi. Endilikda iste'fodagi general-mayor Bahodir Ergashevich Qosimov yoshlar murabbiysidir [7].

Tahlil va natijalar. Sobiq Oktyabr, hozirgi Shayxantohur tumani Toshkentning eski shahar qismida birinchilardan tashkil topgan hududi bo'lib, undagi barcha davlat xo'jalik va idoralari, tashkilotlari hamda aholi xonadonlarini yong'inlardan mudofaa etish vazifasi 5-Mustaqil o't o'chirish qismi (bu vaqtga kelib 5-IHO'O'Q shunday nomlana boshlagan) zimmasiga yuklatilgan. Qism eski shaharning bozor hududida, Sag'bon ko'chasidagi eski binoda faoliyat olib borgan. Ichki xizmat mayori Anatoliy Maksimovich Sluskiy 1992 yilgacha rahbarlik qilgan. 1991-95 yillarda ichki xizmat mayori Azim Abutovich Akbarov, 1995-2001 yillarda ichki xizmat podpolkovnigi Anvar Saydullayev, 2006-2008 yillarda podpolkovnik Ma'ruf Mahmudovich Adilov, 2009 yildan esa podpolkovnik Shavkat Nigmatovich Ibragimov rahbarlik qilishdi. Mustaqillik yillariga kelib Shayxantohur tumani IIB Yong'in xavfsizligi bo'limi shaxsiy tarkibi yangi yong'in o'chirish avtomashinalari bilan to'la ta'minlandi. Xizmat binosi ta'mirdan chiqarilib, shaxsiy tarkib malakali yosh xodimlar bilan mustahkamlandi [8]. 2001 yil 25 iyunda Respublika Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida yong'in xavfsizligi tizimini takomillashtirish tadbirlari to'g'risida"gi qarori chiqib ko'p tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mustaqillik yillarida yong'in xavfsizligi soha vakillari har tomonlama hukumatning qo'llab quvvatlashi bois, rivoj topdi va takomillashib bordi. Istiqol sharofati bilan yangidan yangi zamonaviy bino va inshootlar ishlab chiqarish tarmoqlari, tashkilotlar va muassasalar qad rostladi. Endilikda Respublikada yong'in xavfsizligi xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadida oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari zamonaviy talablar asosida qayta jihozlandi. Fuqarolarning osoyishda turmush kechirishini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Yong'in Xavfsizligi Boshqarmasi xodimlari yetarlicha shart-sharoitlar hamda tajribaga ega bo'lishdi. Bundan tashqari 2019 yilda Yong'in xavfsizligi boshqarmasining Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi boshqarmasi tarkibiga o'tkazilgandan so'ng Buxoro viloyati Yong'in xavfsizligi boshqarmasi huzuridagi muzey targ'ibot markazi tarkibida ham ijobiy o'zgarishlar boshlab yuborildi. Ya'ni, muzey eksponatlari, zallar qayta shakllantirildi. Ushbu tarkibiy o'zgarishlarda muzeyning eksponatlari zallarga tig'iz joylashtirilib, favqulodda holatlar boshqarmasi xodimlarining faoliyatini aks ettiruvchi yangi uchta zal ekspozitsiyasi faoliyat boshladi.

Xulosa va takliflar. Ushbu o'zgarishlar mutaxassis kadrlar va ularni tayyorlaydigan ta'lim muassasalariga ham ta'luqli bo'lib, Muzey fondlaridagi adabiyotlarda qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Yong'in xavfsizligi oliy texnika maktabi kelajagi ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yildagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tasarrufiga o'tkazilib, ushbu vazirlik uchun mutaxassislar yetishtirib beruvchi muassasaga aylantirilgan [9]. Ushbu o'zgarishlar ham muzey eksponatlarida o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. 2020-yil 1-yanvardan boshlab Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi tizimiga o'tkazilgan Yong'in xavfsizligi bosh boshqarmasi va

Yong'in xavfsizligi institutining shahodatlangan xodimlari, ichki ishlar organlari xodimlari uchun ko'zda tutilgan maxsus unvonlar bo'yicha amaldagi ish haqi miqdori saqlangan holda yagona harbiy xizmatchi maqomiga, professional yong'in bo'linmalarining ishchi-xizmatchilari esa - O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi qutqaruvchisi maqomiga ega bo'ladilar [11]. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tizimdagi bunday ijobiy o'zgarishlar soha vakillarining o'z faoliyatidagi mardonovor jasorati, qahramonligi aks etirilgan har qanday ekspozitsiya yoki foto lavhalar o'sib unib kelayotgan yosh avlodni shu vatanga muhabbat ota - onaga hurmat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kazakov T. Kasbim faxrim. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2018. – 189 b.
2. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zMA) 59-fond, 1-ro'yxat, 89-yig'ma jildi, 292-293 varaqlar.
3. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zMA) 59-fond, 1-ro'yxat, 89-yig'ma jildi, 302-305 varaqlar.
4. Yong'in xavfsizligi: xizmat yillarida. – T.: O'zbekiston Respublikasi Yong'in xavfsizligi bosh boshqarmasi, 2011. – B. 115.
5. To'xtayev S. Buxoro viloyati IIB mayori YOXB katta muhandisi. Hayratonlik otaxon. // Yong'in xavfsizligi (Pojarnaya bezopastnost). Ixtisoslashtirilgan amaliy-ilmiy, texnikaviy jurnal. 2010. № 7 (59) – B. 46. – B. 43.
6. Buxoro yong'in xavfsizligi: o'tmish va bugun. – T.: “Buxoro” nashriyoti, 2007. – B. 56.
7. Kazakov T. Kasbim faxrim. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2018. – 163 b.
8. Buxoro viloyat IIB Yong'in xavfsizligi boshqarmasi, targ'ibot va tashviqot markazi “Yong'in xavfsizligi bo'yicha videofilmlar, ko'rgazmalarni ro'yxatga olish daftari”. – Buxoro -2006. – 2 sahifa.
9. Matlyubov B.A. O'zbekistonda jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash tarixi (Ichki ishlar organlari misolida): Monografiya / - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – B. 87.
10. <https://lex.uz/ru/docs/-4320295>
11. <https://daryo.uz/2019/01/11/ozbekiston-davlat-yongin-xavfsizligi-xizmati-favqulodda-vaziyatlar-vazirligi-tasarrufiga-otkaziladi/>
12. Boltayev B. O'ZBEKISTONDAMUZEY ISLOLOTIYO'LIDA//SYeNTRNAUCHNIX PUBLIKASIY (buxdu. uz). – 2021. – T. 6. – №. 6.
13. Bakhtiyorovich B. B. Excerpts from the life of the bukharian artist //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 12. – S. 160-165.
14. Boltayev B. “Jasorat” muzeyi: tarix va talqin Ta'lim va innovasion tadqiqotlar. № 5//, 2022 may, Buxoro. B 40-46
15. Buxoro viloyati yong'in xavfsizligi tarixi muzeyining tavsifi. Research on social and humanitarian sciences. Pheladelf (USA) Volume: 01. Issue:01/Jan-2023.-P.96-101.
16. Excerpts from the life of the bukharian artist. Middle European Scientific Bulletin, volume 12 May 2021. -P.160-165.
17. Buxoro davlat universiteti muzey laboratoriyasining tashkil topishi va rivojlanish tendensiyasi. International journal of philosophical studies and social sciences. Vol 2, Issue 3 2022. <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>. -P.69-73.
18. Yangi O'zbekistonda zamonaviy muzeylarning vujudga kelishi: tarixiy va innovasion yondashuvlar. Markaziy osiyo sivilizasiya tizimida o'zbekiston tarixi va madaniyati xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qarshi, 14 may 2022 yil- B.331-333.

Журнал Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан 2020 йил 6 октябрда ўтган.

Журнал ҳар ойда бир марта ўзбек, рус ва инглиз тилларида нашр этилади.

Журналнинг ҳажми 60x84, 1/8, А-4;

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» халқаро илмий-методик журнали 2020 йил октябрдан нашр этилмоқда.

Педагогика, психология, филология ва тилшунослик, математика, физика ва механика, техника фанлари, табиатшунослик, тарих ва фалсафа, туризм ва иқтисодиёт, ахборот коммуникацион технологиялари, география соҳалардаги илмий ва илмий-услубий материалларни ўз ичига олади. Нашр қилинган материаллар муаллифлари Ўзбекистон Республикаси ҳамда яқин ва узоқ хорижнинг етакчи олимлари, тадқиқотчи-изланувчилари.

Журналнинг калит сўзлари:

Олий педагогик таълим назарияси ва амалиёти; умумий ва махсус педагогика ва психология, педагогика ва инновация, интеграция, Ўзбекистон, Россия ва хорижий мамлакатларнинг таълим тизими; таълим жараёни; кўп маданиятли ва минтақавий таълим; III Ренессанс, XXI асрдаги таълим; таълим ва тарбия соҳасидаги миллий ва кадрият устуворликлари; таълим сифатини мониторинг қилиш; узлуксиз педагогик таълим тизими; таълим дастурлари; умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимнинг давлат таълим стандартлари; ўқитувчиларни тайёрлаш тизимидаги таълим технологиялари.

Гувоҳнома рақами № 8882
Бош муҳаррир: Б.Б.МАЪМУРОВ

Босишга рухсат этилди 20.12.2023. Буюртма №6347.
«Бухоро вилоят босмахонаси» МЧЖда чоп этилди.

ISSN 2181-1717 (E)



ISSN 2181-1709 (P)

